

TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA YO‘LOVCHI TASHISHGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR

Daminov Shahriyor Asomiddin o‘g‘li¹

¹ Toshkent davlat transport universiteti assistenti

daminovshakhriyor@gmail.com

Ismoilov Jamshid Bekjon o‘g‘li¹

¹ Toshkent davlat transport universiteti magistratura MTLT-10 guruhi talabasi

ijamshid007@mail.com

Farxodov Ravshanbek Komiljon o‘g‘li¹

¹ Toshkent davlat transport universiteti magistratura MTLT-10 guruhi talabasi

4ravshanbek@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:18.05.2025

Revised: 19.05.2025

Accepted:20.05.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*Temir yo‘l transporti,
yo‘lovchi tashish,
infratuzilma, xizmat sifati,
innovatsiya, intermodal
tashish.*

Ushbu maqolada O‘zbekiston temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar kompleks tahlil qilindi. Infratuzilma yetishmovchiliklari (eski vagonlar, elektrlashtirishning past darajasi, signalizatsiya tizimlarining eskirganligi), xizmat sifatidagi kamchiliklar (chipta sotish tizimidagi nuqsonlar, qo‘shimcha xizmatlarning yetishmasligi), shuningdek ob-havo sharoitlari va texnik nosozliklar kabi omillar o‘rganilgan. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy vagonlar ishlab chiqarish, intermodal tashish tizimini joriy etish, “Yangi O‘zbekiston” loyihasi kabi amaliy chora-tadbirlar taklif etilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-329-sonli qarori asosida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari tahlil qilingan.

KIRISH. Hozirgi zamonaviy transport tizimining rivojlanishida temir yo‘l transportining o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, yo‘lovchi tashish sohasida xavfsizlik, barqarorlik va arzonlik jihatidan temir yo‘l transporti yetakchi hisoblanadi. Respublikamizda mustaqillik yillarida temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish va zamonaviylashtirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda mamlakat ichida va xalqaro yo‘nalishlarda yo‘lovchi tashishni takomillashtirish, transport xizmatlari sifatini oshirish hamda logistika tizimlarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ushbu maqolada temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashishga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar tahlil qilinib, sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida temir yo‘l transporti tizimini rivojlantirish va yo‘lovchi tashish xizmatlari sifatini oshirish borasida qator normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqot mavzusi bo‘yicha olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, soha rivojiga bevosita ta‘sir qiluvchi omillar, mavjud infratuzilma holati va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlar bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi PQ-329-sonli qarorida temir yo‘l transporti infratuzilmasini zamonaviylashtirish, yangi harakat tarkibi birligi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda logistika tizimini takomillashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Mazkur hujjatda belgilangan vazifalar mamlakat temir yo‘l transporti tizimi rivojiga keng imkoniyat yaratib bermoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2024-yil yanvar-dekabr oylariga oid hisobotlari tahlili asosida aniqlanishicha, so‘nggi yillarda temir yo‘l transportida yo‘lovchilar tashish hajmi va ularning hududlar bo‘yicha taqsimlanishida o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, yirik shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlarda yo‘lovchi oqimi barqaror oshib bormoqda. Shu bilan birga, qator hududlarda mavjud infratuzilmaning eskirganligi sababli yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlari sekin sur‘atda o‘smoqda [2].

X.X. Qodirov, Sh.R. Ergashev va A. Sodiqovlarning “O‘zbekiston temir yo‘l transporti rivojlanish istiqbollari” nomli ilmiy maqolasida mamlakatdagi temir yo‘l infratuzilmasining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan. Mualliflar ta‘kidlashicha, zamonaviy transport-logistika markazlarini tashkil etish, yangi harakat tarkibini xarid qilish va xizmat ko‘rsatish sifati oshirilishi soha rivojining asosiy omillari hisoblanadi [3].

Bundan tashqari, Jahon bankining 2021-yilda e'lon qilgan "Railway Development in Central Asia" nomli hisobotida Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O'zbekiston temir yo'l infratuzilmasi va logistika tizimi rivojlanishi tahlil qilingan. Hisobotda mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha xalqaro tajribaga asoslangan tavsiyalar berilgan bo'lib, bu mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga muvofiq keladi [4].


N.I. Tursunov tomonidan yozilgan "Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish tizimlarini takomillashtirish" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasida esa temir yo'l transportida yo'lovchi tashish tizimlarini modernizatsiya qilish, yangi xizmat turlarini joriy etish va hududiy logistika markazlarini shakllantirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan [5].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, temir yo'l transportida yo'lovchi tashishni rivojlantirishda infratuzilma yangilanishi, xizmat sifati oshishi va logistika tizimining takomillashuvi asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Mazkur tadqiqot ham aynan shu yo'nalishlarni chuqur o'rganishga va mavjud ilmiy ishlanmalarga tayanib, yangicha takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

3. NATIJA VA MUHOKAMA

Xususan temir yo'l transporti infratuzilmasining rivojlanmaganligi, temir yo'l tarmoqlari va yo'llari, stantsiyalar va vokzallarni, depolar va texnik xizmat ko'rsatish markazlarini, signalizatsiya va kommunikatsiya tizimlarini, shuningdek elektr ta'minoti tizimlaridir. Bu komponentlar yo'lovchi tashish jarayonining asosini tashkil etadi va ularning holati hamda rivojlanganlik darajasi butun tizimning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Joriy yilda O'zbekistonda aholi soni 37,543 mln. kishi tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich 2030-yilga kelib 41 mlndan oshishi kutilmoqda. E'tiborli jihati shundaki hozirda jami aholining 50,97% shaharda (19,139 mln) qolgan 49,03% (18,403 mln) qishloqlarda istiqomad qilmoqda. Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida temir yo'l transportida 9,803,6 ming yo'lovchi jo'natilgan bo'lib, bu esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 177,1 ming nafar yo'lovchiga ko'pdir. Bundan ko'rinadiki, Temir yo'l transportida yildan-yilga yo'lovchi tashish talab ortib bormoqda. O'z navbatida yo'lovchilarni manzillariga xavfsiz va o'z vaqtida yetkazish uchun bir qancha tashqi omillar ta'sir qilmasdan qolmaydi. Poyedlar harakati jadvali va ba'zi chekka hududlarga qatnovlar soni kamligi. Misol uchun Afrosiyob poyezdlarini ayrim yo'nalishlarda qatnashi yo'lovchi tashishga bo'lgan talabni qandirmaydi. Intermodal tashishlarni rivojlantirish doirasida "Poyezd + avtobus" yoki "Poyezd + samolyot" kabi kompleks xizmatlar, shahar ichida transport xizmatlari bilan integratsiyalash, yagona chipta tizimini joriy etish kabi loyihalar amalga oshirilishi lozim.



1-rasm. Temir yo'l transportida tashilgan yo'lovchilar soni

Chipta narxlari va ijtimoiy toifalar uchun chegirmalar belgilangan. Talabalar, pensionerlar, urush qatnashchilari va ayrim ijtimoiy toifalar uchun chegirmalar mavjud. Mijozlarga moslashtirilgan xizmatlarni taklif etish, oilaviy sayohatlar uchun maxsus paketlar, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus xizmatlar, katta yoshdagi yo'lovchilar uchun qulayliklar, korporativ mijozlar uchun maxsus dasturlar kabi xizmatlar joriy etilishi kerak.

Xizmat ko'rsatish tizimi chipta sotish va bronlash xizmatlari, yo'lovchilarga axborot berish tizimlari, bagaj va yuk tashish xizmatlari, shuningdek ovqatlanish, tibbiy yordam kabi qo'shimcha xizmatlarni o'z ichiga oladi. Poyezd ichidagi xizmatlarni kengaytirishda turli toifadagi vagonlarni joriy etish (ekonom, biznes, lyuks), ovqatlanish xizmatlarini takomillashtirish (vagon-restoranlar, ekspress-yetkazib berish), ko'ngilochar xizmatlarni kengaytirish (audio-video tizimlar, internet), ishbilarmonlar uchun maxsus xizmatlar (mini-ofislar, konferensiya-xonalar) kabi loyihalar amalga oshirilishi mumkin. Bu tizimlarning sifati va samaradorligi yo'lovchilar mamnuniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Temir yo'l transporti boshqa transport vositalariga nisbatan xavfsiz hisoblanadi. Bu esa aholining ushbu transport turiga bo'lgan ishonchini oshiradi. Shunga qaramay, ba'zan texnik nosozliklar yoki ob-havo sharoitlari poyezdlar harakatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kuchli yog'ingarchilik tufayli temir yo'l izi ko'chishlari, tog'li hududlarda zilzila oqibatida yo'lni tosh, tuproq bosib qolishi natijasida poyezdlar harakatida kechikishlar kuzatilishi mumkin.

Bu borada Prezidentimizning 2023-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329 sonli qarori mazkur tarmoqqa katta turki berdi. Jumladan, Toshkent yo‘lovchi vagonlarini qurish va ta‘mirlash zavodi “Yangi O‘zbekiston” nomli yangi kupe va platskart vagonlarni ishlab chiqardi. Mazkur poyezd Toshkent-Buxoro-Toshkent yo‘nalishiga chiqarilishi kutilmoqda. Qayd etilishicha, uzunligi 26 metrlik kupe va platskart vagonlar yotoq javonlari, har bir kupega alohida havo haroratini boshqarish pulti, mo‘tadil haroratni nazorat qiluvchi qurilmalar, elektr suv qaynatgich, mobil telefonlarni quvvatlash moslamalari, ekologik toza hojatxonalar, videokuzatuv moslamalari va boshqa qulayliklar bilan jihozlangan. 12 ta vagonidan iborat dizel poyezd tarkibida 2 ta VIP, 4 ta biznes, 4 ta ekonom klassdagi vagonlar, 1 ta restoran vagon hamda tarkibni quvvatlash uchun 1 ta dizel vagonidan tashkil topgan, 2024-yilda 35 ta yo‘lovchi vagonini ishlab chiqarilgan, 2025-yilda esa 70 ta zamonaviy yo‘lovchi vagonini qurish ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari 25.04.25-yilda “Yangi O‘zbekiston“ vagonlaridan 10 ta yangi vagonlar foydalanishga topshirildi, 4 ta platskart, 4 ta kupe va 2 ta VIP kupeda iborat. Vagonlar barcha zamonaviy qulayliklarga ega bo‘lib, isitish va sovitish tizimi, hamda xavfsizlik texnologiyalari bilan jihozlangan. Ushbu vagonlar Toshkent-Xiva yo‘nalishida qatnovchi poyezdlarga biriktiriladi. Ushbu vagonlar orqali yiliga 144,5 ming yo‘lovchi tashish ko‘zda tutilgan.



“Yangi O‘zbekiston” vagonlarining ko‘rinishi

Temir yo‘l transportida yo‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan ximatlar sifati yanada yaxshilash va yangi qulayliklar yaratish uchun yo‘lovchilar orasida so‘rovnoma o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

SO‘ROVNOMA

Hurmatli yo‘lovchi! Sizdan poyezd xizmatlari bo‘yicha qisqa so‘rovnomanini to‘ldirishingizni berishingizni so‘raymiz. Fikringiz xizmatlar sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

1. Yashash manzilingiz

2. Kasbingiz

3. Yoshingiz

☐ 18-25

☐ 26-50

☐ 51-70

4. Chiptani qanday usulda xarid qilasiz

☐ Online

☐ Offline

5. Temir yo‘l transportining qaysi xizmatlari ko‘proq ma‘qul bo‘ldi

6. Temir yo‘l transportining qaysi xizmatlari ma‘qul bo‘lmadi

7. Qulaylik uchun yo‘lovchi vagonlarida nimalarni o‘zgartirishni hohlaysiz

So‘rovlar natijalariga ko‘ra, yo‘lovchilarning 45% temir yo‘l xizmatlarining quyidagi jihatlaridan norozi ekanligi aniqlandi:

vagonlarda toza-tartibsizlik: sanitariya standartlariga rioya qilinmasligi, yo‘lovchilar orasida ekologik ongning pastligi, tozalash xodimlarining yetarli bo‘lmaganligi;

chipta sotish tizimidagi noqulayliklar: onlayn tizimdagi muammolar (elektron chiptalarni qabul qilishdagi qiyinchiliklar, band paytlarda tizimning ishdan chiqishi), kassa xodimlarining yetarlicha malakaga ega emasligi;

ma'lumot berish tizimining yetarli emasligi: stansiyalarda axborot displeylarining kamligi, poyezd kechikishlari haqida o'z vaqtida ma'lumot berilmasligi, mobil ilovalarning funksionalligining cheklanganligi, ko'p tilli axborot tizimining yo'qligi.

Bu kabi muammolar yuqori foiz xizmat sifatidagi jiddiy kamchiliklarni ko'rsatadi. Shuning uchun bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

tozalikni ta'minlash bo'yicha: har bir poyezdga professional tozalash brigadalarini tayinlash, har bir yo'nalish uchun sanitariya standartlarini ishlab chiqish, yo'lovchilar uchun ekologik tarbiya dasturlarini joriy etish, avtomatlashtirilgan tozalash uskunalaridan foydalanish;

chipta sotish tizimini takomillashtirish: zamonaviy onlayn bron tizimini joriy etish, mobil ilovalarni takomillashtirish, kassa xodimlarini qayta tayyorlash, blockchain texnologiyasidan foydalanish;

axborot tizimini takomillashtirish: aqlli axborot displeylarini o'rnatish, poyezd holatini real vaqt rejimida kuzatish tizimi, avtomatlashtirilgan ovozli ogohlantirish tizimi, mobil qo'llanma ilovasi ishlab chiqish.

Ushbu soro'vnoma kelajakda yo'lovchi tashishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Yo'lovchilar ehtiyojlarini aniqlash. So'rovnomada yo'lovchilarning yoshi, kasbi va yashash manzili kabi demografik ma'lumotlarni yig'ish orqali, turli ijtimoiy qatlamlar ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos xizmatlar ko'rsatishni rejalashtirish mumkin bo'ladi.

2. Xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha tahlil. Yo'lovchilar qaysi xizmatlardan rozi va qaysilaridan norozi ekanligini aniqlash orqali kamchiliklarni bartaraf etish va mavjud imkoniyatlarni kengaytirish imkoniyati yaratiladi.

3. Narx siyosati va xizmat turlarini takomillashtirish. Biletni qaysi usulda sotib olish qulayligini aniqlash online yoki offline xizmatlarini optimallashtirishga yordam beradi. Shu orqali zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish, chiptalarni elektron sotish tizimini kengaytirish mumkin.

4. Vagon va poyezd qulayliklarini yaxshilash. Yo'lovchilarning taklif va mulohazalari asosida poyezd vagonlarida qanday o'zgarishlar kiritish lozimligini bilish va zamonaviy xizmatlar joriy etish imkoniyati paydo bo'ladi. Masalan: Wi-Fi, telefon quvvatlagichlari, o'rindiqlar qulayligi, gigiyena sharoitlari kabi jihatlari.

XULOSA

O'zbekiston temir yo'l transportida yo'lovchi tashishga ta'sir qiluvchi omillar infratuzilma holati, xizmat sifati, xavfsizlik va iqtisodiy omillarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy vagonlar ishlab chiqarish, xizmatlarni takomillashtirish va intermodal tashish tizimini rivojlantirish yo'lovchi oqimini oshirishga yordam beradi. So'rovnoma natijalari asosida xizmatlarda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va mijoz ehtiyojlarini inobatga olish zarurligi aniqlangan. Kelajakda islohotlar orqali soha raqobatbardosh va qulay bo'lishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-329-sonli qarori. 10.10.2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. "Temir yo'l transporti faoliyati" statistik byulleteni, 2024.
3. Qodirov X.X., Ergashev Sh.R., Sodiqov A. "O'zbekiston temir yo'l transporti rivojlanish istiqbollari" // Transport va logistika ilmiy jurnali, 2023, №2.
4. The World Bank. Railway Development in Central Asia. 2021.
5. Tursunov N.I. "Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish tizimlarini takomillashtirish" magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2022.
6. O'zbekiston temir yo'llari statistik byulleteni, 2024.
7. Transport sohasidagi islohotlar dasturi, 2023-2030.
8. Xalqaro temir yo'l transporti tashkiloti hisobotlari.
9. [Stat.uz](https://stat.uz).
10. [Railway.uz](https://railway.uz).
11. [Kun.uz](https://kun.uz)